



Lingvo
Science.uz

**LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**

CURRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

JILD 2 | SON 3

2026



SAYT: <https://Lingvoscience.uz>

LINGVOSCIENCES.UZ

2-jild 3-son 2026-yil

**LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**

**CORRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND
CULTURAL STUDIES**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЛИНГВИСТИКИ И
КУЛЬТУРОЛОГИИ**

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:**07.00.00 – TARIX FANLARI**

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Axmedov Oybek Saporbaevich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: oybekakhmedov1978@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3122-1973

Samigova Xushnuda Batirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: kabsam@yandex.ru
ORCID: 0009-0005-2327-106X

Eshmo'minov Asqar Allamurodovich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: asqar@list.ru

Axmedova Mehrinigor Bahodirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: mexrisha82@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1198-0326

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.com
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
O'zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail, zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

**“Lingvistika va madaniyatshunoslik
fanlarining dolzarb masalalari”**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektr
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Ubaydullayev Oybek

BRONZA VA ILK TEMIR DAVRIDA FARG'ONA VODIYSI: ARXEOLOGIK MADANIYATLARNING
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI6-12

FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza

O'ZBEK TILIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING TARIXIY KELIB
CHIQISHI VA SHAKLLANISHI 13-18

TARIX FANLARI

Article / Original Paper

**BRONZA VA ILK TEMIR DAVRIDA FARG'ONA VODIYSI: ARXEOLGIK
MADANIYATLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI**

Ubaydullayev Oybek Sherzodbek o'g'li

Andijon davlat universiteti, Tarix fakulteti

2-kurs magistranti

Email: oybekubaydullaev22@gmail.com

Tel: +998 50 109 00 12

ORCID: 0009-0001-5522-9561

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg'ona vodiysining bronza va ilk temir davriga oid arxeologik madaniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududda shakllangan Chust va Eylaton madaniyatlarining rivojlanish jarayonlari hamda ularning tarixiy ahamiyati ilmiy manbalar va arxeologik materiallar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, bronza davri, ilk temir davri, Chust madaniyati, Eylaton madaniyati, arxeologiya, qadimgi madaniyatlar.

**THE FERGANA VALLEY IN THE BRONZE AND EARLY IRON AGE: FORMATION
AND DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL CULTURES**

Ubaydullayev Oybek Sherzodbek ogli

Master's student (2nd year), Faculty of History

Andijan State University

Annotation: This article analyzes the archaeological cultures of the Fergana Valley during the Bronze and Early Iron Age. Based on scientific sources and archaeological materials, the formation and development of the Chust and Eylatan cultures and their historical significance are examined.

Keywords: Fergana Valley, Bronze Age, Early Iron Age, Chust culture, Eylatan culture, archaeology, ancient cultures.

DOI: <https://doi.org/10.47390/LS2025V2I3Y2026N01>

Kirish. Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyodagi qadimgi madaniyatlar shakllangan muhim tarixiy hududlardan biri hisoblanadi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida bu hududda bronza va ilk temir davriga oid Chust va Eylaton madaniyatlariga mansub ko'plab yodgorliklar aniqlangan bo'lib, ular mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini o'rganishda muhim ahamiyatga ega [29, 84–88-b.].

Qadimgi Farg'ona haqida ma'lumotlar yozma manbalarda ham uchraydi. Xususan, Sima Syanning "Shiji" asarida Davan davlati va Markaziy Osiyo hududlari haqida muhim tarixiy ma'lumotlar keltirilgan [30, 31–44-b.]. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda ushbu asar tarixiy voqealarni muayyan siyosiy va mafkuraviy qarashlar asosida talqin qilgan manba sifatida ham baholanadi [31, 76–87-b.].

Adabiyotlar tahlili. Farg'ona vodiysining qadimgi tarixi va arxeologik madaniyatlarini o'rganish masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan keng tadqiq etilgan. Dastlabki ilmiy ishlarda hududning tarixiy-madaniy rivojlanishi, etnik jarayonlari hamda arxeologik yodgorliklari umumiy tarixiy kontekstda tahlil qilingan [1; 2; 3; 11].

Chust madaniyatining kelib chiqishi, xronologiyasi va moddiy madaniyati masalalari Y. A. Zadneprovskiy, V. I. Sprishevskiy hamda boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, bronza davri jamiyatining xo'jalik faoliyati va madaniy xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan [5; 6; 8; 10; 12; 13; 14].

Farg'ona hududidagi arxeologik yodgorliklar, jumladan Сым-Тепе va boshqa manzilgohlar N. G. Gorbunova hamda boshqa tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilib, hududning bronza va ilk temir davri madaniyatlari rivojlanishi tahlil qilingan [9; 19; 20].

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda Farg'ona vodiysining arxeologik komplekslari, xususan Eylaton madaniyati hamda qadimgi shaharlar tarixi yangi ilmiy ma'lumotlar asosida o'rganilmoqda [15; 16; 17; 18; 21; 22; 23; 24].

Shuningdek, hududning qadimgi tarixi umumiy tarixiy tadqiqotlarda ham yoritilib, Farg'ona vodiysining Markaziy Osiyo tarixidagi o'rni va madaniy jarayonlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan [4; 7; 25; 26; 27; 28].

Materiallar va metodlar. Tadqiqot jarayonida Farg'ona vodiysining qadimgi arxeologik madaniyatlariga oid ilmiy adabiyotlar, arxeologik tadqiqot natijalari hamda yozma tarixiy manbalar material sifatida foydalanildi. Tadqiqotda tarixiy-taqqoslash, manbashunoslik tahlili va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar orqali hududning bronza va ilk temir davri madaniyatlari hamda ularning tarixiy rivojlanish jarayonlari tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida Farg'ona vodiysida bronza va ilk temir davriga oid arxeologik madaniyatlar mavjudligi hamda ularning hudud tarixiy taraqqiyotida muhim o'rin tutgani aniqlandi. Arxeologik topilmalar hudud aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganini ko'rsatadi. Shuningdek, Chust va Eylaton madaniyatlariga oid yodgorliklar Farg'ona vodiysida qadimgi madaniy jarayonlarning uzluksiz rivojlanganligini tasdiqlaydi.

Muhokama. Farg'ona vodiysi arxeologik yodgorliklarini o'rganish tarixi Janubiy Qirg'izistondagi Sel-Ung'ur makoni kabi ilk topilmalarni ham o'z ichiga oladi. 1930-yillardan boshlab olib borilgan izlanishlar esa qadimgi qishloqlar va qabristonlarning aniqlanishiga sabab bo'ldi. Ushbu jarayonda M. YE. Masson [1; 25–26-b.], B. A. Litvinskiy [2; 45–46-b.; 3; 12-b.] kabi olimlarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy ekspeditsiyalar ham mintaqaning boy tarixini izchil tadqiq etishni davom ettirmoqda. Janubiy Qirg'izistondagi Sel-Ungur kabi ilk topilmalar hududning qadimiy aholi manzillari haqida dastlabki tasavvurni bergan bo'lsa, 1930-yillardan boshlab olib borilgan muntazam izlanishlar qadimgi qishloqlar va qabristonlarning tizimli ravishda aniqlanishiga imkon yaratdi. Bu davrda Masson, Litvinskiy kabi olimlarning ishlari ayniqsa muhim bo'lib, ular Farg'ona vodiysi arxeologiyasi uchun asosiy ilmiy poydevor vazifasini bajardi.

“So'x havzasi O'zbekistonning Farg'ona viloyati So'x, Yaypan, Rishton, Uch ko'prik, Dang'ara tumanlari bilan birgalikda Qirg'iziston Respublikasining Batkenviloyati hududlarini ham o'z ichiga oladi. Voha janubiy-sharqda Oloy, janubiy-g'arbda Turkiston tog' tizmalari bilan o'ralgan, shimoliy chegarasi Sirdaryogachabo'lgan hududni qamraydi. Vohaning balandlik mintaqasi 400-4000 m. Asosiydaryosi So'xsoy o'z suvini Oloy tog' tizmalaridan oladi. Uning

uzunligi 124 km, suvhajmi 3510 km bo'lib, Janubiy Farg'onadagi eng sersuv daryo hisoblanadi. Daryo Oloy tizmasining shimoliy qismidan, dengiz sathidan qariyb 3000 metr dan ziyodroq balandlikda Oqterak va Xojaochgan irmoqlari qo'shilishidan hosil bo'ladi. Asosan qor va muzliklardan hamda yer osti suvlaridan to'yinganligi tufayli iyun va sentabr oylarida to'lib oqadi. Daryoning yuqori qismi tor vachuqur bo'lsa, tekislik hududida tarmoqlarga bo'linib So'x yoyilmasini hosil qiladi" [4; 144–153-b.]. Havzaning ikki tomonlama Oloy va Turkiston tog' tizmalari bilan o'ralgan bo'lishi uning yopiq, o'ziga xos mikroiklimli hudud ekanini ko'rsatadi. Bu kabi tog'lar bilan o'ralgan vodiylar qadimdan odamlar uchun xavfsiz, suvga boy va dehqonchilikka qulay bo'lgan, shuning uchun ham ushbu hududda qadimiy aholi joylari zich bo'lgan.

So'xsoyning suv hajmi yuqori va yil davomida qor-muzliklardan to'yinishining kuchli bo'lishi vodiyning ijtimoiy-xo'jalik taraqqiyotida asosiy rol o'ynagan omil. Suvning iyun-sentabr oylarida to'lib oqishi dehqonchilikning mavsumiy jarayonlar bilan chambarchas moslashganini bildiradi: aynan yoz faslida suvning ko'pligi ekinlar uchun eng zarur bo'lgan davrga to'g'ri keladi.

Dar yoning yuqori qismidagi tor va chuqur vodiylar, pastqam hududlarda esa tarvaqaylab yoyilma hosil qilishi qadimgi dehqonchilik uchun tabiiy sug'orish imkoniyatlarini yaratgan. Ya'ni daryo tabiiy ravishda suvni bir nechta yo'nalishga tarqatadi, bu esa inson tomonidan ariq va kanal tizimlarini barvaqt paydo bo'lishiga sharoit yaratgan.

So'x havzasidagi tosh davriga oid yodgorliklarni keng qamrovli, maqsadli o'rganish ishlari 1952 yilda, A.P. Okladnikov boshchiligida tuzilgan Qirg'iziston kompleks arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi paleolit otryadi tomonidan boshlangan. Otryad tarkibida shuningdek, V.A. Ranov hamda o'lkashunos P.T. Konopleham bo'lgan. 1953-yilda P.T. Konoplya Palman va Uchqo'rg'on qishloqlari o'rtasi dajoylashgan Palman manzilida Isfaramsoy adirlarida topilma joylarni aniqladi. Ushbu topilma joydan yirik qavariq tig'li chopper siniqlari, hamdachaqmoqlashgan ohaktosh jinsli qavariq-ovalsimon, serqirra choppinglar topilgan. So'x havzasidagi tosh davri yodgorliklarining tizimli o'rganilishi 1952 yilda maxsus ekspeditsiya tarkibida boshlangani bu hududning qadimgi tarixini ilmiy asosda o'rganishdagi burilish nuqtasi bo'ldi. A.P. Okladnikov rahbarligidagi paleolit otryadi tarkibida arxeologlar bilan birga o'lkashunos mutaxassislarning ham ishtirok etishi tadqiqotlarning keng ko'lamda olib borilganini ko'rsatadi. 1953 yilda P.T. Konoplyaning Palman manzilida yangi topilma joylarni aniqlashi So'x havzasida qadimgi ovchi-terimchi guruhlarining faol bo'lganini tasdiqlaydi.

So'x havzasidagi eng qadimgi qayroqtoshli madaniyati izlari bu So'xtumanida joylashgan Chashma bulog'i atrofida aniqlangan. Chashma qishlog'idanyig'ib olingan tosh buyumlar ham o'ziga xos bo'lib, ular ilk paleolitning o'rtalari uchun xosdir. Topilmalar oval shaklda, chaqmoqlashgan galkalardan sindirilgan uchrindilar, qirralari o'tkirlangan chopper va chopping tipidagi qo'pol toshqurollaridan iborat [4; 144–153-b.].

Insonlarning Afrikadan Yevroosiyoga ikkinchi migratsion to'lqini sharqda Markaziy Osiyo va Hindistongacha bo'lgan hududlargacha yetib boradi. Xitoy, Sharqiyva Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasini ilk marotaba o'zlashtiruvdan so'ng mazkur hududlarda ilk, o'rta va so'nggi paleolitning boshlarida tosh industriyasi Yevroosiyoning boshqa mintaqalaridan farq qiladigan mahalliy lokal texnologiyalar asosida rivojlanadi. Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoda tog'qurollarga levallua usulida ishlov berish an'anasi kuzatilmaydi. Chjoykoudyan-dagi

tadqiqotlar levallua tipidagi tosh siniqlarning boshqa texnologiyalaryordamida olinganligini ko'rsatib berdi [4; 144–153-b.].

Ushbu parcha Afrikadan chiqqan insonlarning ikkinchi migratsiya to'liqini Sharq yo'nalishida qanday yoyilganini va bu jarayonning tosh industriyasi rivojiga qanday ta'sir ko'rsatganini yoritadi. Insonlar Markaziy Osiyo, Hindiston, Xitoy, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoga yetib borganidan keyin, bu hududlarda toshga ishlov berish an'analari asta-sekin o'ziga xos mahalliy ko'rinishga ega bo'lgan. YA'ni Osiyoning sharqiy mintaqalari boshqa Yevroosiyo hududlaridan farqli ravishda mustaqil texnologik rivoj yo'lini bosib o'tgan.

Ayniqsa, Levallua texnikasi Yaqin Sharq va Yevropada paleolitning muhim belgisi Osiyo sharqida deyarli uchramasligi, bu yerda tosh qurollar boshqa usullar orqali shakllantirilganini ko'rsatadi. Chjokoudyan (Zhoukoudian) yodgorligidagi tadqiqotlar ham shuni tasdiqlaydi: tashqi ko'rinishi Levallua uslubini eslatuvchi bo'laklar aslida butunlay boshqa texnologik jarayon natijasidir.

Kech bronza davrida Farg'ona vodiysida mil. avv. XV–XIV asrlardan IX–VIII asrlargacha datalanadigan chust madaniyati shakllandi [5; 70-b.; 6; 45-b.; 7; 210-b.; 8; 104-b.]. Chust madaniyatiga oid asosiy ma'lumotlar yirik qal'atepalar (Chust, Dalvarzin, Osh qishlog'i va boshqalar) hamda ayrim posyolkalar qazilmalaridan olingan bo'lib, topilmalar orasida keramika eng ko'p uchraydi [9; 18-b.; 10; 130-b.; 12; 72-b.]. Alay vodiysiga kelsak, bu hududda asosan andron madaniyati yodgorliklari aniqlangan bo'lib, bu holat chorvador xo'jalik tarzining ustuvorligidan dalolat beradi [15; 210-b.; 16; 178-b.].

“Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, Farg'ona vodiysining dehqonchilikka moslashuvi kechki bronza davrida boshlangan, chunki undan avvalgi davrga oid yodgorliklar hozircha topilmagan. Shu bilan birga ayrim ma'lumotlar Xaqskiy va Aflatunskiy xazinalari kabi chust davrigacha bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan topilmalar mavjudligini ko'rsatadi” [17; 45–46-b.].

Arxeologik kuzatishlar Farg'ona vodiysining dehqonchilikka moslashuvi aynan kech bronza davrida shakllanganini ko'rsatadi. Undan avvalgi bosqichlarga oid aniq yodgorliklarning hozircha topilmagani, avvalo, mintaqaning bu davrga kelib izchil o'zlashtirilganini bildiradi. YA'ni, o'troq hayotga xos belgilar yerga ishlov berish, xo'jalik makonlarining shakllanishi, sug'orish imkoniyatlaridan foydalanish aynan shu qatlamlarda aniq kuzatiladi.

“Erta temir davri (ETD) Farg'ona vodiysi qadimgi tarixining eng muammoli masalalaridan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi eylaton madaniyatiga «o'troq» maqomining berilishi, shuningdek, ushbu tarixiy-madaniy hudud qadimgi madaniyatlarining izchil rivojlanish tizimida shuraboshat madaniyatining o'rni va ahamiyatining noaniqligidir” [18; 19–35-b.].

Eylaton madaniyati, Farg'ona viloyatidagi Simtepa va Andijon viloyatidagi Sarvantepa qishloq yodgorliklarining quyi qatlamlarida aniqlangan. Shuningdek, qadimgi Farg'onaning turli davrlariga mansub yigirmaga yaqin yodgorliklarning quyi qatlamlaridan ushbu madaniyatga oid faqat ayrim keramika parchalari topilgan [18; 22-b.; 19; 45-b.; 20; 18-b.; 21; 97-b.; 22; 20-b.; 23; 95-b.; 24; 125-b.; 25; 100-b.; 26; 120-b.].

Yozma manbalarda «Qadimgi Baqtriya podsholli» kabi davlatchilik tuzilmasi haqida ma'lumotlar mavjud. Farg'ona vodiysi bo'yicha bunday ma'lumotlar mavjud emas, shunga qaramay, ayrim olimlar qadimgi Farg'ona podsholli (Dovon) mavjud bo'lganligini taxmin qilishadi. Shuning uchun ham mil. avv. I mingyillik o'rtalarida oid Farg'ona vodiysi haqida

ketganda faqat «qishloq-shaharlar» shaklidagi davlatdan oldingi tuzilmaning vujudga kelishini nazarga tutilgan. Bu holatni hisobga olib aytish mumkinki, Farg'onada bunday davlatchilik taxminan mil. avv. V-IV asrlarda vujudga keladi. Bu xulosa ikkita tarixiy faktik asoslangan. Birinchisi: aynan mazkur davrga oid arxeologik topilmalar (Shuraboshat madaniyati)ning topilishi bu yerda ishlab chiqarish kuchi rivojlanganligini (tovar ishlab chiqarish va savdoning kuchayishini) taxmin qilishga asos bo'ladi. Ikkinchisi: mil. avv. II asrdayoq bu yerda ko'p sonli shaharlar mavjud bo'lgan. Mil. avv. 136-128 yillarda Farg'onada bo'lgan Xitoy elchisi va sayyohati Chjan Szyan: «Dovonda 70 dan ortik kichik va katta shaharlar bor», - deb qayd etgani [27; 194-b.].

Dovon shaharlar va vohalarning ittifoqi asosida shakllangan, patriarxal-quldorlik tusidagi podsholik davlati edi. A.A. Askarovning fikricha, o'sha davrda aholining bir qismini hunarmand va dehqonlik bilan shug'ullanuvchi ozod kishilar tashkil etuvchi erkin jamoalar davlatning ijtimoiy-iqtisodiy asosini tashkil qilgan. Shubhasiz, Dovonliklar yirik markazlashgan davlat darajasida faoliyat ko'rsatmagan, ammo jamiyatning tabaqalanishi, shuningdek, davlat va xususiy mulk mavjud edi. Bu, xususan, bitta aholi yashaydigan qo'rg'ondan bir necha ming yulon (chinni yulon: 1 yulon = 100 kg) sharob saqlanganidan ko'rinadi. Bunday katta miqdordagi ichimlikni ishlab chiqarish va iste'mol qilish uchun bitta oilaning imkoniyati yetarli emas [27; 194-b.].

Ma'lum bo'lishicha, Markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlari singari Axsikentning ham o'z qal'asi, shaxristani (ichki shahar) va rabodi (tashqi shahar) bo'lgan. Milodimizning X-XI asrlariga kelib, uning maydoni 400 gektarga yetgan. Dastlab, biz shahar qal'asi haqida aniq ma'lumotga ega emas edik. Uning asosiy qismini vaqtlar o'tishi bilan Sirdaryo suvi yuvib ketgan, qolgani qo'r va yomg'ir ta'sirida teksilanib qolgan ekan. Faqat qal'aning shimoliy va shimoliy-sharqiy qismi uncha katta bo'lmagan do'nglik shaklida saqlanib qolgan. Bu yerda mudofaa devori va handaq qoldiqlari ko'zga tashlanib turardi [28; 7-b.] Matnda keltirilgan ma'lumotlar Ahsi-kentning Markaziy Osiyodagi klassik shaharlarga xos tuzilishga ega bo'lganini ko'rsatadi. Qal'a, shahristan va rabodning mavjudligi shahar nafaqat mudofaa, balki ma'muriy, iqtisodiy va hunarmandchilik markazi sifatida shakllanganidan dalolat beradi. X-XI asrlarga kelib uning maydonining 400 gektarga yetgani esa Ah-sikentning mintaqadagi eng yirik siyosiy-iqtisodiy markazlardan biriga aylanganini ko'rsatadi.

Xulosa. Xullas, Farg'ona vodiysi qadimgi davrlarda muhim tarixiy-madaniy hududlardan biri bo'lgan. Arxeologik tadqiqotlar natijalari hududda bronza va ilk temir davrida rivojlangan Chust va Eylaton madaniyatlari mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Ushbu madaniyatlar mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan hamda Farg'ona vodiysining qadimgi tarixini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Перечень научных работ и публикаций М. Е. Массона. — Ташкент, 1954.
2. Литвинский Б. А. Проблемы этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы // История и культура народов Средней Азии (древность и средние века). — М., 1976.
3. Литвинский Б. А. «Золотые люди» в древних погребениях Центральной Азии // Советская этнография. — 1982. — № 4.
4. Пардаев М. Археология Каменного века бассейна Сох // Общество и инновации. — 2021. — Т. 2. — № 9/С. — С. 144–153.

5. Заднепровский Ю. А., Марков Ю. Н. Хронология чустской культуры Ферганы в свете новейших углеродных данных // Известия Академии наук Киргизской ССР. Общественные науки. — 1989. — № 2. — С. 65–79.
6. Заднепровский Ю. А. Ошское поселение. К истории Ферганы в эпоху поздней бронзы. — Бишкек : Мурас, 1997. — 172 с.
7. Кузьмина Е. Е. Арии — путь на юг. — М. : Летний сад, 2008. — 556 с.
8. Ташбаева К. И. К вопросу о происхождении и особенностях чустской культуры Ферганы // Известия Национальной академии наук Кыргызской Республики. — 2015. — № 3. — С. 101–108.
9. Горбунова Н. Г. О культуре степной бронзы Ферганы // Археологический сборник Государственного Эрмитажа. — СПб. : Гос. Эрмитаж, 1995. — Вып. 32. — С. 13–30.
10. Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы. — М.; Л. : Изд-во АН СССР, 1962. — 328 с. — (Материалы и исследования по археологии СССР; вып. 118).
11. Литвинский Б. А. Бронзовый век // История таджикского народа. — М. : Изд-во восточной литературы, 1963. — Т. 1. — 596 с.
12. Спришевский В. И. Чустская стоянка эпохи бронзы (раскопки 1953 г.) // Советская этнография. — 1954. — № 3. — С. 69–76.
13. Спришевский В. И. Чустское поселение эпохи бронзы (к истории Ферганы в эпоху бронзы) : автореф. дис. ... канд. ист. наук. — Ташкент, 1963. — 17 с.
14. Спришевский В. И. Чустское поселение эпохи бронзы // Краткие сообщения института истории материальной культуры. — 1957. — № 71. — С. 86–98.
15. Селин Д. В. и др. Новые данные по Чустской культуре Памиро-Алая (Южный Кыргызстан) // Вестник Томского государственного университета. История. — 2023. — № 84. — С. 175–183.
16. Абдуллаев Б. М. К проблеме эйлатанской культуры древней Ферганы // Бюллетень МИЦАИ. — 2023. — Т. 35. — С. 19–35.
17. Заднепровский Ю. А. Археологические памятники южных районов Ошской области. — Фрунзе, 1960.
18. Заднепровский Ю. А. Спорные вопросы истории культуры древней Ферганы // КСИА. — Вып. 199. — М., 1993. — С. 17–23.
19. Горбунова Н. Г., Козенкова В. И. Сым-Тепе — поселение в Фергане // АСГЭ. — Вып. 16. — Л., 1974. — С. 95–104.
20. Горбунова Н. Г. Итоги исследования археологических памятников Ферганской области // Советская археология. — 1979. — № 3. — С. 16–46.
21. Матбабаев Б. Х., Грицина А. А. Археологические исследования в юго-западной части шахристана Кувы (Кубы) // ИМКУ. — Вып. 31. — Ташкент, 2000. — С. 91–110.
22. Иванов Г. П. Новые данные по истории г. Кува // Археологические исследования в Узбекистане в 2004–2005 гг. — Самарканд, 2006. — С. 124–126.
23. Анарбаев А., Максудов Ф., Кубаев С. Чильхуджра (Кыркхуджра): руины древнего города северо-западной Ферганы // ИМКУ. — Вып. 39. — Самарканд, 2015. — С. 89–112.
24. Матбабаев Б. Х., Хошимов Х. Б. Эйлатанская культура и вопросы изучения раннего железного века Ферганы // Культуры азиатской части Евразии в древности и средневековье. — Самарканд, 2021. — С. 119–122.
25. Кузьмина Е. Е. Арии — путь на юг. — М. : Летний сад, 2008. — 556 с.
26. Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы. — М.; Л. : Изд-во АН СССР, 1962. — 328 с.
27. Ўзбек давлатчилиги тарихи : Т. 1 / Масъул муҳаррирлар: Э. В. Ртельский, Д. А. Алимова. — Тошкент : Akademnashr, 2021. — 600 б.

28. Анорбоев А., Исламов У., Матбабаев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. — Тошкент : Фан, 2001.
29. Khudoyorov N. M., Ruziboev S. S. Traditions of the Sak-Massaget Tribes // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2024. – Vol. 26. – pp. 84–88.
30. Khudoyorov N. M., Ruziboev S. Sima Qian’s Shiji Work: Historical Truth or Ideological Construction? // Journal of Modern Educational Achievements. – 2025. – pp. 31–44.
31. Ruziboev S., Khudoyorov N. Reconstructing Silent Voices in Ancient Historiography: Re-reading the Shiji through an Inclusive Artificial Intelligence Lens // AI & Antiquity: Journal of Teaching and Technology in Ancient Studies. – 2026. – pp. 76–87.

LINGVOSCIENCES.UZ

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI

CORRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

2-jild 3-son 2026-yil

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog’lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).